



“TEMURBEKLAR MAKTABI” HARBIY AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Jumaev Javlonbek Abduqahhor o‘g‘li

Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tel (91-044-42-77)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14160236>

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litsey o‘quvchilarining mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun tizimdagi kamchiliklar, hamda yutuqlar taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Temurbeklar maktabi”, mustaqil ishlar, ijodiy qobiliyat, ko‘nikma, malaka

Аннотация: В данной статье анализируются недостатки и достижения в системе формирования и развития навыков самостоятельной работы учащихся военно-академического лицея «Темурбеклар мактаби».

Ключевые слова: «Темурбеклар мактаби», самостоятельные работы, творчество, умения, квалификация.

Abstract: This article analyzes the shortcomings and achievements in the system of formation and development of independent work skills of students of the military-academic lyceum "Temurbeklar maktabi".

Keywords: "Temurbeklar maktabi", independent work, creativity, skills, qualifications.

Respublikamizda tashkil etilgan “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylarida so‘nggi yillarda o‘quvchi-yoshlarning voqelikka nisbatan ongli munosabati, dahldorlik hissi va ijtimoiy faolligini yanada rivojlantirish, erkin va mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi ta‘lim muhitini yaratishning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda, ta‘lim mazmunini xalqaro ta‘lim standartlariga muvofiq yangilash borasida samarali yondashuvlar joriy etilmoqda. Bugungi kun zamonaviy ta‘limi o‘quvchi-yoshlarga faqat bilim berish, ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olingan bilimlardan foydalanish bo‘yicha o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va kengaytirish, ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish, ularning tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularga mustaqil bilimlarni qidirib topish, o‘zlashtirish shakllari, usullari va vositalarini o‘rgatishdan iborat.



Xozirgi kundagi rivojlanib borayotgan ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishdek muhim, ayni damda murakkab masala yo'q. Jumladan bugungi kun ta'limi oldiga o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish bilan bog'liq muammolarni yechish masalasini qo'yadi. Natijada, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish ta'lim jarayonining asosiy shakliga aylanib, mazkur masalada jiddiy yondashuvlarni taqozo etadi.

V.V.Kraevskiyning tadqiqotlariga ko'ra, mustaqil ish o'quvchilarning bilish qobiliyatini rivojlantirishga, yangi materialni o'zlashtirish tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tashkil etilgan va muntazam ravishda olib boriladigan mustaqil ish yuqori sinf o'quvchilari tomonidan o'qituvchi mavzu yuzasidan tayyor material asosida bergan bilimlariga nisbatan chuqurroq va mustahkam bilimlarni egallashga yordam beradi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar ularning bilim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, tafakkurining o'sishiga, shuningdek, mustaqil ishlash orqali olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga, individual amaliy tajribaga ega bo'lishga imkon beradi. Muayyan vaqt davomida tizimlashtirilgan va rejalashtirilgan mustaqil o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda mustaqil ishlashning yanada barqaror ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. [1]

Ma'lumki "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylarida o'quvchilar 9-sinfni tamomlab, imtixonlar yordamida saralab olinadi va qabul qilingan o'quvchilar 2 yil davomida litseylarda taxsil oladi. Qabul qilingan yuqori sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda mustaqil ishlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi va ular quyidagi xususiyatlarga ko'ra tasniflanadi:

- mustaqil ishlarda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar o'quvchilardan izlanuvchanlikni talab qilishi;
- o'quvchilarni mustaqil holda hukm, xulosa va umumlashmalar chiqarishga yo'naltirishi;
- mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tug'ilishi.

O'quvchilarda mustaqil ishlashni tashkil etish o'qituvchi tomonidan materiallarning muammoli tarzda bayon etilishi bilan hosil qilinadi. Bunda: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, o'zlashtirilgan usullarini amalda qo'llashga oid vazifalarni bajarish va ijodiy ishlarni bajarish kabi topshiriqlar beriladi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, o'quvchi fan asoslarini mustaqil aqliy faoliyat orqaligina puxta egallaydi [3].



Mustaqil ish o'quvchilarning o'zaro fikr almashinuvida, bog'lanishli nutqida, tanqidiy fikrlashida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi va ularning tafakkurini o'stirishda muhim hisoblanadi.

Shuningdek, mustaqil ishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Reproduktiv mustaqil ishlar. Reproduktiv mustaqil ishlar o'quvchilarning avval olingan bilimlarini amalda qo'llashini nazarda tutadi. Bunday mustaqil ishlarga namuna asosidagi mustaqil ishlar, sharhlab yozish, grammatik topshiriqli diktantlar kiradi. Bu xildagi mustaqil ishlar o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish jarayoniga qishman ta'sir ko'rshatadi va u ko'pincha darslik mashqlari asosida o'tkaziladi.

2. Rekonstruktiv mustaqil ishlar. Rekonstruktiv mustaqil ishlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilar muammoni hal etish uchun avval olgan bilimlarini hayolda faqat qayta tiklabgina qolmay, balki muammoni hal etish yo'llarining mavjud umumiy tushunchalardan qayshi biriga mos kelishini o'rganadilar. Bu tipdagi mustaqil ishlarga bayon, shaxsni o'zgartirib hikoya qilish, tahlil qilish, test topsiriqlari, tarqatma materiallar asosidagi mustaqil ishlar misol bo'la oladi [1].

Kuzatishlarga asosan, mustaqil fikrlash, avvalambor, yangi savol, yangi muammoni ko'ra bilish va qo'ya bilish, so'ngra uni o'z kuchi bilan hal qilishda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, mustaqil fikrlash o'quvchilarning shunday faoliyatiki, unda o'quvchilar maksimal faollik, ijodkorlik, mustaqil hukm chiqarish va tashabbuskorlikni namoyon qiladilar. Natijada o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'ladilar:

- bilimlarni mustaqil ravishda yangi vaziyatda qo'llay olish;
- mavzularni o'rganish davomida yangi muammoni ko'ra bilish;
- bir muammoning bir nechta yechimlari bo'lishi mumkinligini anglash;
- avval ma'lum bo'lgan muammolarni hal qilish usullarini kombinatsiyalash;
- muammoni hal qilishning original usullarini topa bilish.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, muayyan vaqt davomida tizimlashtirilgan va rejalashtirilgan mustaqil o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda mustaqil ishlashning yanada barqaror ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.[5]

Ma'lumki, o'quvchilar tomonidan mustaqil faoliyat asosida egallangan bilim, o'qituvchi tomonidan tayyor ma'lumot asosida berilgan bilimdan ko'ra chuqurroq o'zlashtiriladi. Shu jihatdan, o'quv jarayonida o'quvchilarda mustaqil aqliy va amaliy harakatlar hajmini oshirish, o'zini o'zi boshqarish hamda



mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay shartsharoitlarni yaratish dolzarb masaladir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv jarayonida o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z ustida mustaqil ishlash hajmini oshirish hamda ularning mustaqil ta'lim olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zamonaviy ta'lim oldida turgan dolzarb masala sifatida o'rganishni taqozo etadi.

References:

1. Abdullaeva I. A. Maktab o'quvchilarining ta'limdagi mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish usullari // Til va adabiyot ta'limi. №1. 2021
2. V.V.Krayevskiy., Metodologiya pedagogiki: noviy etap: uchebnoye posobiye dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy. V.V.Krayevskiy, Ye.V.Berejnova. – M.: Izdatelskiy sentr "Akademiya", 2006. – 400s. [1].
3. Axmedova M. A., Baxromov X. A. Vospitatelnyy potentsial urokov russkogo yazika i literaturi // ORIENSS. 2022. № Special Issue 4-2. URL:
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/vospitatelnyy-potentsial-urokov-russkogo-yazyka-iliteratury> (data obrasheniya: 17.01.2024).
5. Valiyeva X.X. (2022). Samostoyatelnaya rabota uchashixsya i osobennosti yee organizatsii na urokax rodnogo yazika v shkolax Uzbekistana. Vestnik pedagogicheskogo universiteta (Seriya 2: Pedagogiki i psixologii, metodiki prepodavaniya gumanitarnix i yestestvennix dissiplin), (4 (4)), 221-226.
6. Xoshimova S Bosh mutaxassis, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi "Yuqori sinf o'quvchilarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish " www.doi.org/10.5281/zenodo.10531952